



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH USUL VA YONDASHUVLARI

To'xtaboyeva Mahliyo Rustamjon qizi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15178989>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Respublikamizda ingliz tilini o'qitishga doir olib borilayotgan sa'y harakatlar, boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish jarayoni, ularning ingliz tiliga nisbatan qiziqishlarini oshirish usullari, ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish, til ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha bajarilayotgan amaliy ishlar, xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirishga doir metodlar keltirilgan. Shu bilan bir qatorda, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tinglashni o'rgatish jarayoni maxsus tayyorlangan materiallar va texnikalar haqida, ushbu jarayonda bolalarning yangi so'zlarni qabul qilish va ularni kontekstda tushunish qobiliyatini rivojlantirish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tinglash ko'nikmasi, ritmika, intonatsiya, interaktiv mashq, flaskard, poster, talaffuz.

Abstract: This article presents the efforts made to teach English in our Republic, the process of teaching English in elementary grades, methods of increasing their interest in English, the use of game technologies in education, practical work on developing language skills, in particular, methods of forming listening comprehension skills in elementary school students. In addition, information is provided on the materials and techniques specially prepared for teaching listening to elementary school students, in the process of developing children's ability to receive new words and understand them in context.

Key words: listening skills, rhythm, intonation, interactive exercise, flaskard, poster, pronunciation.

Аннотация: В данной статье представлены усилия по преподаванию английского языка в нашей республике, процесс преподавания английского языка в начальных классах, методы повышения интереса к английскому языку, использование игровых технологий в обучении, практическая работа по развитию языковых навыков, в частности, методы формирования навыков понимания на слух у учащихся младших классов. Кроме того, представлена информация о материалах и методиках, специально подготовленных для обучения аудированию учащихся младших классов, в процессе развития у детей способности воспринимать новые слова и понимать их в контексте.

Ключевые слова: умение слушать, ритм, интонация, интерактивное упражнение, фляжка, плакат, произношение.

Kirish.

Globalashuv jarayonlari O'zbekiston yoshlarining butun dunyoda ilm o'rganishi, mehnat faoliyatini ko'rsatish, til va iqtisodiy qamrovini oshirib bormoqda. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimining ta'lim oluvchilariga til ko'nikmalarini qay darajada singdira olganligi va ularning keyingi hayotini qay darajada rejalashtira



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

olishi, bunda tilka oid umumbashariy va milliy qadriyatlarga qay darajada e'tibor qaratish ko'nikmasi shakllanganligini ta'lim tizimining natijasi sifatida qarash mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabr kuni qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunining bir qator moddalarida [3] aynan yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish alohida ta'kidlangan. Ushbu qonunning 3-moddasida mamlakatimizning 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslari yoshlar deb tushunilishi belgilab qo'yilgan. Yoshlarda til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun hukumatimiz tomonidan yoshlarga ko'plab shart-sharoitlar yaratib kelinmoqda va bu davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Shuningdek, yoshlarimizni tilka, ishbilarmonlikka jalb etishda, kasb-hunarga yo'naltirishda, ularda tilka oid amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirok etishi mumkinligi qonunning 19-moddasida aks etgan hamda ushbu qonunning 26-moddasiga ko'ra, yoshlarni tilka yo'naltirishni rivojlantirishga ko'maklashishga alohida urg'u berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar kunidagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni mamlakatimizning keyingi besh yili uchun dasturi amal bo'lib xizmat qilmoqda. Yetti yo'nalishdan iborat taraqqiyot strategiyasining to'rtinchi yo'nalishida aynan ta'lim va ilm fanni rivojlantirishga alohida urg'u berilgan. Unga ko'ra umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish maqsadida bitiruvchilarning bandligini ta'minlash, inson kapitalini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. O'quvchilarda til ko'nikmalarini rivojlantirish ularning o'z-o'zini bandligini ta'minlash orqali jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam beradi.

Dunyoda bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar o'z navbatida yoshlarga ta'lim-tarbiya berish jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda va kasbga yo'naltirib o'qitish uchun yoshlarda til, ishbilarmonlik, tashabbuskorlik salohiyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda fanlararo uzviylikni ta'minlovchi zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llashni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan 2020-yil 23-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 637-son Qonuni xalqaro standartlar va zamon talablari asosida yangi tahrirda qabul qilindi. Ushbu qonun 75-moddadan iborat bo'lib, uning 3-moddasida zamonaviy ta'lim-tarbiyaga oid yangi tushunchalar mazmuni zamonaviy talqin etilib, ushbu moddaga asosan ta'lim tushunchasida o'quvchilarning



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

umumta'lim va kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirishga alohida urg'u berilgan.

Zamonaviy boshlang'ich ta'limdagi eng asosiy va ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning 2012-yil 10- dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1815-sonli Qaroridir.

Metod va metodologiya.

Ushbu qaror asosida chet tillarini asosan, ingliz tilini o'zgarish umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitish yanada rivojlantirish bo'yicha doimiy ishlaydigan muvofiqlashtiruvchi kengash boshchiligida ta'lim sohasining barcha yo'nalishlarida beqiyos ko'lamli ishlarni amalga oshirishga kirishildi. Masalan, 2013-2014- o'quv yilidan e'tiboran umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni o'yin tarzidagi mashg'ulotlar va og'zaki nutq darslari shaklida uzluksiz o'rgatish o'rgatish yo'lga qo'yildi. Shuningdek ushbu sinflarga mo'ljallangan darslik hamda o'quv- metodik majmualar yaratildi. Diqqatga molik jihati, birinchi sinflar uchun yaratilgan majmualardagi o'yin-mashg'ulotlarning kichik yoshga mutanosibliigi ta'minlanadi. Bolalar xorijiy til bilan ilk tanishishni salomlashish madaniyati, ranglar va kundalik so'zlarni dialog shaklida o'rganishdan boshladilar. Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfda o'quvchilarga chet tillarni o'rgatishda o'quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Qarorda ta'kidlanganidek, birinchi sinflarda o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida chet tillarini o'rgatishni amalga oshirish, haqiqatan, kichik yoshdagi o'quvchilarga mosligidir. Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. O'yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar ta'limga o'yin orqali yondashuv ta'lim jarayonida osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu fanga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqur bilim olishiga undaydi. Shubhasiz, mamlakatimiz ta'lim dargohlarida xorijiy tillar xonalarini zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalari o'qitishning ilg'or texnik vositalari bilan jihozlash, teleradiokanallarda bolalar va o'smirlarni xorijiy tillarga o'rgatuvchi ko'rsatuv va eshittirishlarni berib borish, boshqa mamlakatlar tarixi va madaniyati, jahon ilm-fani va texnik yangiliklariga bag'ishlangan ilmiy-ommabop xorijiy badiiy va multiplikatsion filmlarni o'zbekcha subtitr yordamida



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

muntazam namoyish etish yoshlarimizga dunyo xalqlarining o'tmishi, madaniyati, ilm-fani bilan yaqindan tanishishi imkonini berdi.

Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rgatish jarayoni bolalarning chet tilga bo'lgan qiziqishini uyg'otish va ushbu tilni asosiy kommunikatsiya vositalaridan biri sifatida qabul qilishiga yordam beradi. Bu bosqichda o'quvchilarning yoshi va qobiliyatlariga mos ravishda til o'rganish ko'nikmalari (tinglash, gapirish, o'qish va yozish) shakllantiriladi. Mazkur jarayon qiziqarli, ijodiy va bolalar ehtiyojlariga mos yondashuvlarni talab qiladi.

Ingliz tili ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni

1. Tinglash ko'nikmalari

Tinglash ko'nikmalari (listening skills) chet til o'rganishning birinchi va eng muhim bosqichidir. Bu ko'nikma boshqa til qobiliyatlari, jumladan, gapirish, o'qish va yozish uchun asos yaratadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tinglashni o'rgatish jarayoni maxsus tayyorlangan materiallar va texnikalar orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayon bolalarning yangi so'zlarni qabul qilish va ularni kontekstda tushunish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishning maqsadlari

Eshitganini tushunish: Oddiy so'zlar, iboralar va gaplarning ma'nosini anglash.

Eshitish orqali muloqot: O'qituvchi va tengdoshlar bilan og'zaki aloqaga kirishish.

Diqqatni jamlash: Nutqni diqqat bilan eshitish va asosiy g'oyani ajratib olish qobiliyatini rivojlantirish.

Nutqni ajratish: Turli talaffuzlar, intonatsiyalar va ohanglarni ajratib olish.

Tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish usullari va faoliyatlari

1. Oddiy ko'rsatmalarni tinglash va bajarish

O'quvchilarga dars davomida oddiy ko'rsatmalar berish (masalan, "Stand up," "Sit down," "Open your book").

Ko'rsatmalarni ingliz tilida tez-tez takrorlash orqali bolalarning eshitganini tushunishga yordam berish.

Harakatli o'yinlar o'tkazish, masalan, "Simon Says" kabi o'yinlar orqali tinglash ko'nikmalarini mustahkamlash.

2. Qo'shiqlar va she'rlar eshitish

Oddiy va ritmik qo'shiqlarni tinglash orqali o'quvchilarning so'zlarni yodlashini ta'minlash.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Bolalar uchun mo'ljallangan she'r va qo'shiqlardagi talaffuz va ohangga e'tibor qaratish.

Qo'shiqlarni eshitishdan keyin ularni birgalikda kuylash orqali nutqni mustahkamlash.

3. Audio materiallar bilan ishlash

Ingliz tilida gapiriladigan qisqa hikoyalar yoki matnlarni tinglash.

Matn mazmuni bo'yicha oddiy savollarga javob berish (Masalan: "Who is in the story?", "What color is the car?").

Tinglagan materialni qayta hikoya qilish yoki rasm asosida tushuntirish.

4. Turli intonatsiyalarni ajratib olish

O'quvchilarga turli nutq ohanglarini eshittirish, masalan, savol va tasdiq gap ohanglari.

Intonatsiyani tushunishga yordam beruvchi qisqa mashqlar, masalan: "Is it a question or a statement?" kabi faoliyatlar o'tkazish.

5. Rasm va ovoz bilan bog'liq mashqlar

Turli predmetlarning rasmlarini ko'rsatib, ularning nomlarini eshittirish.

Ovozni rasm bilan bog'lash (Masalan, "Listen and match the sound with the picture").

Masalan, "cat," "dog," "bird" kabi so'zlar uchun ovozlarni o'quvchilar tanlashi kerak bo'lgan mashqlarni tashkil qilish.

6. Rolli o'yinlar

Har xil mavzularda oddiy suhbatlarni tinglash va ularda ishtirok etish (Masalan, do'konda xarid qilish yoki maktabda suhbatlashish).

O'quvchilarning o'zlarini qahramonlar o'rnida his qilishi uchun turli rol o'yinlari orqali ularning muloqotga bo'lgan ishonchini oshirish.

7. Hikoyalarni tinglash

Yoshga mos va qiziqarli hikoyalarni tanlash.

Hikoya eshitilgandan so'ng asosiy savollar berish: "What happened first?", "What is the main idea of the story?"

Hikoya bo'yicha rasm chizish yoki hikoyadagi voqealarni ketma-ket joylashtirish faoliyatlarini tashkil qilish.

8. Takrorlash orqali eshitishni yaxshilash

So'zlar va iboralarni bir necha marta takrorlash.

Eshitilgan gaplarni jamoaviy yoki individual ravishda qayta aytirish.

Tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishda foydalaniladigan vositalar



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Audio yozuvlar: Bolalar uchun mo'ljallangan kitoblar va audiokitoblardan foydalanish.

Video materiallar: Rasmlilik hikoyalar, multfilmlar yoki qisqa filmlar.

Interaktiv ilovalar: Tinglash va tushunishni yaxshilash uchun mo'ljallangan o'yinlar va mashqlar.

Flaskartlar va posterlar: Rasmlar bilan bog'liq tinglash faoliyatlarini tashkil qilish uchun.

Tinglash ko'nikmalarini baholash

Tinglash ko'nikmalarini baholash uchun:

Oddiy savollarga javob berish: Eshitilgan matnga oid qisqa savollarga o'quvchilarning to'g'ri javob berishini baholash.

O'xshash va farqli ovozlarni ajratish: Turli so'z yoki tovushlarni farqlash qobiliyatini tekshirish.

Mashqlarni bajarish: Tinglaganidan keyin topshiriqlarni (matching, gapni tugallash, to'g'ri/javobni belgilash) bajarish.

Muhokama va natijalar.

Tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tilni o'zlashtirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko'nikma gapirish, o'qish va yozish qobiliyatlarini rivojlantirishiga ham xizmat qiladi. Tinglash jarayonini o'yinlar, qo'shiqlar va interaktiv mashqlar bilan boyitish orqali bolalarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish va til o'rganishga faol jalb qilish mumkin.

Tinglash ko'nikmalari (listening skills) chet tilni o'rganishning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Bu ko'nikma boshqa til qobiliyatlarining rivojlanishi uchun poydevor yaratadi va tilni tushunish, eshitilgan ma'lumotni qayta ishlash kabi jarayonlarda muhim o'rin tutadi. Quyida tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishga oid O'zbekiston, rus va chet el olimlarining fikrlari asosida batafsil bayon etiladi.

Abdullayeva M. A. o'zining ilmiy ishlarida tinglashni til o'rganishdagi birinchi bosqich sifatida ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari tinglash orqali tilning fonetik tizimini anglaydi va bu ularga talaffuzni yaxshilash imkonini beradi. Abdullayeva oddiy va o'quvchilar uchun tushunarli bo'lgan matn va audiomateriallardan foydalanishni taklif qiladi.

Jo'rabekov S. tinglash faoliyatini rivojlantirish uchun bolalarning diqqatini jalb qiluvchi va motivatsiyasini oshiruvchi usullarni qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. U o'yin texnologiyalari va audiomateriallardan foydalanishni tavsiya etadi.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Lev Vigotskiy “yaqin taraqqiyot zonasi” (Zone of Proximal Development) konsepsiyasida tinglash faoliyati bolalarda yangi bilimlarni egallash jarayonining asosini tashkil etishini ta’kidlaydi. U til o’rganishda muloqot va eshitilgan ma’lumotni qayta ishlash orqali rivojlanish jarayoniga alohida e’tibor qaratgan.

Leontyev tinglashni kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishdagi asosiy komponent sifatida ko’rib, o’quvchilarning tinglash orqali turli intonatsiya va talaffuz shakllarini farqlash qobiliyatini oshirishni taklif qiladi.

Stephen Krashen “Input nazariyasi”da til o’rganishda tinglashning muhimligini ta’kidlaydi. U “tushunarli kirish” (comprehensible input) tamoyilini ilgari surib, tinglash orqali tilni tabiiy o’rganish jarayonini tushuntiradi. Tinglash o’quvchilarni yangi tilga moslashtiradi va ular muloqotga kirishishdan oldin tilni tushunishga imkon beradi.

Michael Rost o’zining tadqiqotlarida tinglashni faqat passiv jarayon deb emas, balki ma’lumotni qayta ishlash va tushunish bilan bog’liq interaktiv jarayon deb hisoblaydi. U tinglash o’quvchilarning boshqa til ko’nikmalarini rivojlantirishga asos bo’lishini ta’kidlaydi.

Celce-Murcia tinglash va gapirishni birga rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, tinglash faoliyati gapirish bilan uzviy bog’liq bo’lib, ularni parallel ravishda rivojlantirish orqali tilni samarali o’rganish mumkin.

Tinglash ko’nikmalarini rivojlantirish uchun tavsiyalar

Yuqoridagi olimlarning ilmiy ishlari asosida tinglash ko’nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

Oddiy va tushunarli audiomateriallar qo’llash (Krashen, Vigotskiy).

Interaktiv va o’yin texnologiyalarini qo’llash (Jo’rabekov, Celce-Murcia).

Tinglash orqali talaffuz va intonatsiyani yaxshilash (Leontyev, Rost).

Tinglashdan so’ng savol-javob va muloqot faoliyatlarini tashkil etish (Abdullayeva, Celce-Murcia).

Mazkur ilmiy yondashuvlar tinglash ko’nikmalarini rivojlantirish jarayonida keng qo’llanilishi mumkin va bu boshlang’ich sinf o’quvchilarining chet tilni samarali o’zlashtirishiga yordam beradi.

Xulosa.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, boshlang’ich sinf o’quvchilarining ingliz tilidan til ko’nikmalarini rivojlantirish – bu uzoq muddatli ta’limning muvaffaqiyatli asosini yaratadigan jarayon. Bu jarayonning samaradorligi darsning qiziqarli va ijodiy bo’lishiga, shuningdek, o’qituvchining pedagogik mahoratiga bog’liq.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Tinglash, gapirish, o'qish va yozish kabi asosiy ko'nikmalarni o'z ichiga olgan integratsiyalangan yondashuv o'quvchilarning tilga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularning kelajakda muvaffaqiyatli til o'rganishlariga zamin yaratadi.

Yuqorida tinglash ko'nikmasini rivojlantirishning o'ziga xos metod va metodologiyasi bilan tanishildiki, albatta har bir sinfga va undagi o'quvchilarga alohida individual tarzda yondashilib, mazmunga mos bo'lgan maqsadlar qo'yilgan taqdirda tinglash ko'nikmasini muvaffaqiyatli tarzda rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.12.2012 yildagi PQ-1875-son. "Xalq so'zi" gazetasi, 11.12.2012-y., 240 (5660)-son; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.07.2019-y., 06/19/5759/3385-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.09.2021-y., 06/21/6311/0861-son, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son, 12.05.2022-y., 07/22/241/0408-son.
2. Abdullayeva, M. A. Boshlang'ich sinflarda chet tilni o'rgatishda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti, 2020. – 150 b.
3. Jo'rabekov, S. Boshlang'ich ta'limda chet tilni o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 120 b.
4. Выготский, Л. С. Мышление и речь. – Москва: Наука, 1978. – 352 с.
5. Леонтьев, А. А. Психология общения. – Москва: Издательство МГУ, 2003. – 284 с.
6. Krashen, S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982. – 202 p.
7. Rost, M. Listening in Language Learning. – London: Longman, 1990. – 268 p.
8. Celce-Murcia, M. Teaching English as a Second or Foreign Language. – Boston: Heinle & Heinle, 2001. – 457 p.
9. M. Mahmudova, N. Qobulova. Boshlang'ich sinflarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Академические исследования в современной науке, 2022 237-240 b.